IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

BIR UMR ADOLAT XIZMATIDA: ALISHER AZIZXO'JAYEVNING IBRAT MAKTABI

Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi
Namangan davlat universiteti
Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi
muhammadjonovago07@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21439051

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning taniqli davlat arbobi, yuridik fanlar doktori Azizxo'jayev Alisher Abbosovichning hayoti va faoliyati yoritiladi. Unda olimning ilmiy merosi, davlat boshqaruvidagi o'rni, pedogogik faoliyati hamda yosh huquqshunoslar uchun ibrat bo'ladigan fazilatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, uning adolat, ilm va insoniylikka asoslangan qarashlari bugungi huquqiy jamiyat rivoji nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Maqola yosh avlodni vatanparvarlik, mas'uliyat va kasbiy halollik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.
Kalit so'zlar. Alisher Azizxo'jayev, huquqshunoslik, davlat arbobi, yuridik fanlar doktori, ilmiy meros, adolat, huquqiy madaniyat, davlat boshqaruvi.

Jamiyat taraqqiyoti va huquqiy davlat barpo etish jarayonida ilm-fan vakillari va yetuk huquqshunoslarning o'rni beqiyosdir. Har bir davr o'zining ilmli, fidoyi va mas'uliyatli shaxslarini yetishtiradi. Ana shunday siymolar xalq xotirasida nafaqat egallagan lavozimlari, balki qoldirgan ilmiy merosi va insoniy fazilatlari bilan ham abadiy saqlanib qoladi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida ana shunday yuksak fazilatlarga ega bo'lgan davlat arboblari va olimlar safida Azizxo'jayev Alisher Abbosovich alohida o'rin egallaydi.

U o'z hayotini ilm-fan, ta'lim va davlat boshqaruvi tizimini rivojlantirishga bag'ishlagan yetuk huquqshunos olim sifatida tanilgan. Uning ilmiy qarashlari, boshqaruv sohasidagi tajribasi hamda yosh avlodga bo'lgan e'tibori uni zamonaviy o'zbek huquqshunoslik maktabining muhim vakillaridan biriga aylantirdi. Ayniqsa, u qoldirgan ma'naviy va ilmiy meros bugungi kunda ham yosh huquqshunoslar uchun mustahkam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.

Azizxo'jayev Alisher Abbosovich 1953-yil 30-sentyabrda Farg'ona viloyati Rishton tumanida ziyolilar oilasida dunyoga kelgan. Uning bolalik yillari ilmga chanqoqlik, atrofdagi voqealarga nisbatan chuqur tahliliy yondashuv va adolatga intilish ruhi bilan ajralib turgan. Keyinchalik u o'z hayot yo'lini ilm-fan va huquqshunoslik bilan bog'lashni aynan shu davrdayoq belgilab olgan.

U o'rta ta'limni muvaffaqiyatli tamomlagach, 1975-yilda Toshkent davlat universitetining yuridik fakultetiga o'qishga kiradi. Talabalik yillaridayoq u davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy huquq va boshqaruv tizimi masalalariga alohida qiziqish bildirgan. Uning ustozlari Azizxo'jayev haqida: "u oddiy talaba emas, balki muammoga ilmiy qaray oladigan yosh tatqiqotchi edi" deya ta'rif berishgan. O'qish jarayonida u nafaqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan cheklanmay, balki ilmiy to'garaklarda faol ishtirok etib, huquqiy tizim va davlat boshqaruvi masalalariga oid ilk tahliliy chiqishlarini ham amalga oshirgan. Bu esa uning kelajakdagi ilmiy faoliyatiga mustahkam zamin yaratdi.

Keyinchalik u aspirantura bosqichini ham muvaffaqiyatli yakunlab, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qiladi hamda yuridik fanlar doktori ilmiy darajasiga erishadi. Shu tariqa u nafaqat amaliyotchi huquqshunos, balki chuqur nazariy bilimga ega olim sifatida shakllanadi.

Ilmga chanqoqlik insonni oddiy bilim egasidan tafakkur egasiga aylantiradi. Xususan, Alisher Azizxo'jayevning ilmiy merosida ham aynan shu tamoyil yaqqol namoyon bo'ladi.

Uning ilmiy izlanishlari orasida 2011-yil Toshkentda nashr qilingan “Chin O’zbek ishi” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur asar Xitoy va O’zbekiston o’rtasidagi tarixiy, madaniy hamda diplomatik aloqalarni chuqur tahlil qilishga bag’ishlangan bo’lib, muallif unda ikki xalq o’rtasidagi o’zaro hamkorlikning shakllanish jarayonlarini ilmiy-publitsistik uslubda yoritadi. Asarda nafaqat tarixiy jarayonlar, balki madaniy almashinuv, iqtisodiy aloqalarning rivojlanish dinamikasi ham keng tahlil qilingan. Muallif masalani faqatgina tarixiy faktlar orqali emas, zamonaviy xalqaro munosabatlar nuqtayi nazaridan ham ko’rib chiqishga harakat qiladi. Shu jihatdan ushbu asar uning ilmiy tafakkuri kengligi va tahliliy yondashuvi yuqori darajada shakllanganini ko’rsatdi.

Azizxo‘jayev Alisher Abbosovichning ilmiy faoliyati faqatgina nazariy izlanishlar bilan cheklanib qolmagan, balki bevosita pedagogik jarayon bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. U uzoq yillar davomida oliy ta’lim muassasalarida dars berib, yosh huquqshunos kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shgan. U Toshkent davlat universiteti va keyinchalik Toshkent davlat yuridik institutida dars bergan, kafedra mudiri sifatida faoliyat yuritgan. Uning ma’ruzalari nazariy chuqurligi, amaliy misollar bilan boyitilgani va talabalarni mustaqil fikrlashga undashi bilan mashhur edi. U talabalarni faqat tayyor bilim bilan ta’minlash emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, huquqiy muammolarga tahliliy yondashishga o‘rgatishni asosiy maqsad qilgan. Bundan tashqari, u davlat va huquq nazariyasi, konstitutsiyaviy rivojlanish, davlat boshqaruvi samaradorligi hamda huquqiy madaniyat masalalariga oid ko’plab ilmiy maqola, monografiya va o’quv qo’llanmalar muallifi bo’lgan. Ko’plab yosh olimlarga ilmiy rahbarlik qilib, yuridik fan rivojiga katta hissa qo’shgan.

Azizxo’jayev Alisher Abbosovichning ilmiy-pedogogik faoliyati uning davlat boshqaruvi sohasidagi yetuk rahbar sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratdi. U egallagan chuqur bilim va boshqaruvga oid nazariy qarashlar keyinchalik davlat miqyosidagi muhim lavozimlarda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida Azizxo‘jayev davlat boshqaruvi tizimida ham muhim lavozimlarda ishlagan (Wikipedia ma’lumotlariga asoslangan):

- 1991–1996-yillarda — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi;
- 1996–1998 va 2003–2004-yillarda — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari;
- 1998–2003-yillarda — Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi rektori;
- 2004–2007-yillarda — O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vaziri;
- 2006–2007-yillarda — Prezident matbuot kotibi;
- 2008–2012-yillarda — O‘zbekiston Kurash federatsiyasi prezidenti.

U davlat boshqaruvi, ta’lim, madaniyat va sport sohalarida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashgan. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasi, huquqiy madaniyatni rivojlantirish va milliy qadriyatlarni asrash masalalariga alohida e’tibor qaratgan.

Azizxo‘jayev Alisher Abbosovichning davlat boshqaruvidagi faoliyati uning yuksak mas’uliyatli rahbar sifatidagi qiyofasini namoyon etgan bo‘lsa, uning insoniy fazilatlari va jamoat hayotidagi ishtiroki uni yanada hurmatga sazovor shaxsga aylantirgan. U o‘z faoliyatida nafaqat ilm va boshqaruvni, balki ma’naviyat va milliy qadriyatlarni ham muhim o‘rinlarda ko‘rgan.

U oddiy insonlar bilan muloqotda samimiy, talabalar va hamkasblar bilan esa talabchan, lekin adolatli ustoz sifatida tanilgan. Uning eng muhim fazilatlaridan biri — har qanday vaziyatda ham insoniylik tamoyillaridan chekinmaslik edi. Bu esa uni atrofidagilar orasida katta hurmatga sazovor qilgan.

Shuningdek, u jamoat ishlarida ham faol bo‘lib, milliy sportni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. Xususan, O‘zbekiston Kurash federatsiyasi faoliyatida ishtirok etib, kurash sportini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish va yosh sportchilarni qo‘llab-quvvatlashga katta hissa qo‘shgan. Bu uning milliy qadriyatlarga bo‘lgan chuqur hurmatini yana bir bor ko‘rsatadi. Uning

hayotida ilm, davlat xizmat va jamoat faoliyati bir-biri bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, bu holat uni ko‘p qirrali va yetuk shaxs sifatida namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Azizxo‘jayev Alisher Abbosovich hayoti — bu ilm, adolat va fidoyilik uyg‘unlashgan ibrat maktabidir. U o‘z faoliyati davomida nafaqat yirik davlat arbobi va olim sifatida, balki yosh avlod uchun haqiqiy ustoz, yo‘l ko‘rsatuvchi siymo sifatida ham namuna bo‘la oldi. Uning ilmiy merosi, davlat boshqaruvidagi tajribasi va insoniy fazilatlari bugungi kunda ham yosh huquqshunoslar uchun muhim ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. U qoldirgan g‘oya va qarashlar — adolat, vijdon va mas’uliyat tamoyillariga asoslangan jamiyat qurish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Alisher Azizxo‘jayevning hayoti va faoliyati nafaqat tarixiy siymo sifatida, balki zamonaviy huquqshunoslar uchun ham bitmas-tuganmas ibrat manbai bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo‘jayev Alisher Abbosovich. Biografik ma’lumotlar va ilmiy faoliyatiga oid manbalar.
2. “Chin O‘zbek ishi”. Toshkent, “O’zbekiston”, 2011.
3. Toshkent davlat universiteti arxiv materiallari (1975–1991 yillar).
4. Azizxo’jayev A. www.arboblar.com
5. Azizxo’jayev A. www.akademiklar.uz